

SEMANTIK-STILISTIK FIGURA BO'LMISH ANTITEZANING BADIY ADABIYOTDA O'RNI VA AHAMIYATI

Alijon Mamajonov

Ilmiy rahbar: Farg'ona davlat universiteti professori, dotsent

Abduraximova Dilafruz

Farg'ona davlat universiteti Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistranti

Abduraximova Dilnavoz

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi
3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada semantik-stilistik figuralarning badiiy adabiyotdagi o'rni antiteza orqali ochib berilgan. Antitezaning adabiyot nechog'lik muhimligi uning fikrni ifodali, tasirchan va lo'nda ifoda etishini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: semantika, stilistika, semantik-stilistika, antiteza, konstruksiya, xiazm

Antitezaning asosiy vazifasi kontrast hisoblanadi. Semantik kontrast asosida maxsus sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutq birliklarining stilistik maqsadda qarama-qarshi qo'llanishi natijasida antiteza hodisasi yuzaga chiqadi.

Antiteza badiiy adabiyotda va notiqlik san'atida faol qo'llanadigan semantik-stilistik vosita hisoblanib, unda bir-biriga zid qo'yiladigan tushunchalar, fikrlar qarama-qarshi qo'yilishi natijasida, nutqning ta'sirchanligi ortadi, bayon qilinayotgan umumiy fikrga nisbatan tinglovchining qiziqishi kuchayadi.

Antiteza usulidan stilistik maqsadlarda keng foydalaniladi. Antiteza stilistik oppozitsiya usulidir. U ikkilik xarakteriga ega, ya'ni unda faqat ikki narsa bir-biriga solishtiriladi va zid qo'yiladi. Bu hodisada uchinchi narsa bo'lmaydi. Shuning uchun ham antitezali sintaktik konstruksiyalar binarizatsiya usuli asosida shakllanadi va simmetrik xarakterga ega bo'ladi.

Nutqda ifodalilikni yanada kuchaytirish maqsadida ma'nosi jihatdan bir-biriga zid tushunchalar, mazmunan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan qiyoslash usuli antiteza deyiladi. Antiteza hodisasi til sathlarining hammasida ham kuzatiladi. Lekin bu hodisaning sintaksis doirasidagi, ayniqsa, qo'shma gap tarkibidagi vazifasi alohida ahamiyatga molik. Sintaktik-stilistik vositalar doirasida antiteza usuli qo'shma gaplarda qo'llanish mahsuldorligi jihatidan sintaktik takror turlari bilan bir qatorda turadi. Qo'shma gap tarkibidagi bu sintaktik-stilistik vositalarda intonatsiya ko'tarilib, bu gap doirasidagi kulminatsion nuqtaga yetadi.

Antitezali sintaktik konstruksiyalar mazmunan ikki qutbga ajralib, ular biri ikkinchisini inkor etadi:¹

Ostonangda hayron turibman dunyo...

Borliq va yo‘qlikning

Chegarasida.

Eshingga boshim uribman dunyo,

Hayot va o‘limning

Bo‘sag‘asida.

Qarama-qarshilik mazmunini ifodalovchi usullardan yana biri xiazm deyiladi. Xiazm – gap bo‘laklarining gapda teskari funksiyada qayta – takroran qo‘llanish usuli. Masalan:

Biri yovuzlikdan qildi xo‘b ogoh,

Biri yaxshilikdan olamni gulbog‘.

Biri yovuzlikni yerga kirusdi,

Biri yaxshilikni ko‘kka yetkuzdi.

Bu konstruksiya antitezali konstruksiya hamdir. Chunki unda bir holat ikkinchi bir holat bilan oppozitsiya hosil qiladi. Xiazm hodisasining antiteza hodisasi bilan qo‘shilib ketishi tilshunoslikda “antimetabola” deb yuritiladi. Xiazm haqida E.M.Beregovskayaning “Ekspressiv sintaksis” kitobidan kengroq ma’lumot olish mumkin.² Bu hodisa o‘zbek tilshunosligida O.Mamaziyyayev tomonidan nomzodlik dissertatsiyasi sifatida o‘rganilgan.³ Yuqoridagi konstruksiyalarning har biri mazmunan ikki qismga bo‘linib, qismlar mazmuni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan va shu yo‘l bilan ularning belgilari qayd qilingan.

Misollar tahlili guvohlik beradiki, antiteza usuli qo‘shma gaplarning shart-payt, qiyoslash-zidlash munosabatini ifodalovchi turlarini hosil qilishda yetakchi usul hisoblanadi. Shuning uchun ham antitezaning qo‘shma gap tuzishda ishtirok etuvchi sintaktik-stilistik usullardan biri sifatida izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Antitezali qo‘shma gaplar, yuqorida ko‘rsatilganidek, mavjud nutq uslublaridan, asosan, ikkitasida, og‘zaki va badiiy nutq stilida keng qo‘llanadi.

Antiteza usuli kitobxonga nutqda qarama-qarshi qo‘yiladigan voqea-hodisa, narsalar o‘rtasidagi aloqani aniq ifodalashga yordam beradi.⁴

Xullas, antiteza qo‘shma gapda qo‘llanuvchi sintaktik-stilistik vositalardan biri hisoblanib, yangi ma’lumot berish hamda uni o‘zlashtirishda katta natija beradi. Antiteza uchun qarama-qarshi ma’no, tushuncha va fikrlarni ajratib ko‘rsatish, qayd

¹ Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, 234-б.

² Береговская Э.М. Экспрессивный синтаксис. – Смоленск, 1984, с.П - 50

³ Мамазияев О. Ўзбек тилида хиазм ва градация. Филол.фан.ном.дисс. ...автореф. Фарона, 2005

⁴ Сенкевич М.П. Стилистика научной речи и литературное редактирование научных произведений. – М., 1976, с.155

etish, ularning bir-biridan farqini ta'kidlash va kuchaytirish kabi xususiyatlar xarakterlidir. Xuddi shu maqsadlarda antitezali qo'shma gaplardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983, 234-б.
2. Береговская Э.М. Экспрессивный синтаксис. – Смоленск, 1984, с.П - 50
3. Мамазияев О. Ўзбек тилида хиазм ва градация. Филол.фан.ном.дисс. ...автореф. Фарона, 2005
4. Сенкевич М.П. Стилистика научной речи и литературное редактирование научных произведений. – М., 1976, с.155